



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2026-yil 26-mart, № 56 (9228)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MAMLAKATIMIZNING INVESTITSIVAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-mart kuni Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bank tizimida islomiy moliya mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Jahondagi geosiyosiy keskinlashuv sharoitida investitsiyalarni jalb qilish uchun raqobat tobor kuchayib bormoqda. Yurtimizning boy tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va islohotlari esa bu borada katta ustunlik yaratmoqda.

Ko'plab xalqaro kompaniyalar mintaqaviy xavf-xatirlarni baholab, yangi bozorlarni o'rganishni boshlagan. Bu biz uchun tarixiy imkoniyat. Shu vaziyatda fursatni boy bermasdan, xalqaro moliya kompaniyalarini o'zimizga tezroq jalb qilishimiz shart, — dedi Prezidentimiz.

Joriy yilda 50 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilish maqsadiga erishish uchun investorlarning O'zbekiston bozoriga kirishini yengillashtirish, ularga zamonaviy infratuzilma, xalqaro standartlarga mos huquqiy rejim, qo'shimcha qulayliklar va eng muhimi, ishonchli hamda shaffof biznes muhitini ta'minlash zarur.

Shu bois taqdimotda mamlakatimiz investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan uchta ustuvor yo'nalish — xalqaro moliya va raqamli texnologiyalar markazlarini tashkil etish hamda islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish masalalari ko'rib chiqildi.

Toshkent xalqaro moliya markazi muhokama qilinayotgan ekan, ushbu markazni joriy turdagi investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishning samarali vositasi bo'lishi qayd etildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qo'shimcha 20 – 25 milliard dollar jalb qilish, yalpi ichki mahsulot o'sishiga har

yili qo'shimcha 1 foizgacha hissa qo'shish, 15 mingtagacha yangi yuqori malakali ish o'ri yaratish, 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Markaz faoliyati uchun maxsus huquqiy rejim joriy etish ko'zda tutilgan. Bunda Angliya va Uelsning umumiy huquqiy markaz to'g'risidagi qonunga zid bo'lmagan darajada tatbiq qilinadi, markazning boshqaruv organlari o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi, nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashtirilgan Toshkent xalqaro tijorat sudi va xalqaro arbitraj markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Markaz rezidentlari uchun kapitalning erkin harakati va repatriatsiyasi, erkin valyuta operatsiyalari, zamonaviy to'lov vositalari, jumladan, raqamli aktivlar bilan ishlash, imtiyozli soliq rejimi, soddalashtirilgan viza tartibi kabi keng imkoniyatlar yaratilishi belgilangan. Moliya-investitsiya va bank faoliyati, sug'urta, raqamli aktivlar, qimmatli qog'ozlar, to'lov tizimlari va xizmatlari, moliyaviy texnologiyalar bilan bog'liq xizmatlar markazning asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish — "Enterprise Uzbekistan" brendi ostida Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish va rivojlantirish.

Taqdimotda mazkur markaz uchun 2100-yilga qadar amal qiladigan maxsus huquqiy rejim nazarda tutilgani ma'lum qilindi. Markazda tartibga solish "qumdoni" doirasida yangi yechimlarni sinovdan o'tkazish, ish haqini xorijiy

valyutada to'lash, xalqaro mehnat standartlarini joriy qilish, shaxsiga doir ma'lumotlarni xalqaro standartlar va bulutli texnologiyalar asosida qayta ishlash mumkin bo'ladi. Intellektual mulkni himoya qilish, investitsiyalar, startaplar va eksport uchun qulay sharoitlar yaratiladi, bojxona va soliq bo'yicha yengilliklar beriladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli transformatsiya, tadqiqot va ishlanmalar, sertifikatlashtirish, startaplar hamda ma'lumotlar markazlari ushbu markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilanmoqda.

Taqdimotda 2030-yilgacha mazkur markaz orqali 1 mingtagacha kompaniyani jalb qilish, 300 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratish va 5 milliard dollarlik eksport salohiyatiga chiqish maqsadi belgilangan aytiladi. Bir qator yirik xalqaro texnologik kompaniyalar ushbu tashabbusga qiziqish bildirgani qayd etildi.

Uchinchi yo'nalish sifatida mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish masalasi ko'rib chiqildi.

Yurtimizda tovarni nasibaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish — murobaha, foydani taqsimlash sharti asosida mijozni moliyalashtirish yoki pul mablag'larini jalb etish — muzoraba, vakillik shartnomasi orqali pul mablag'larini berish yoki jalb etish — vakala, tovarlar uchun oldindan haq to'lash orqali moliyalashtirish — salam va istisno, birgalikdagi faoliyat orqali mijozni moliyalashtirish — mushoraka, mol-mulkni

islomiy ijara berish kabi operatsiyalar, shuningdek, qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa islomiy moliya instrumentlarini joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Bunda sotilgan tovar ustamasiga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligi, investitsiyaviy omonatdan olingan daromad soliqdan ozod qilinishi, islomiy ijara shartnomalari moliyaviy ijara va lizingga tenglashtirilishi belgilanmoqda.

Sohada tizimli boshqaruvni ta'minlash maqsadida Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi tashkil etiladi. Shuningdek, islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi banklarda ham alohida kengashlar tuziladi. Ushbu kengashlar standartlar ishlab chiqish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarni tayyorlashda ko'maklashish, bahsli masalalarga izoh berish, shartnomalar va ichki hujjatlarini ko'rib chiqish, muvofiqlik ustidan nazoratni ta'minlash bilan shug'ullanadi.

Joriy yilda kamida bitta tijorat bankida islomiy "darcha" faoliyatini yo'lga qo'yish, 2026 – 2030-yillarda esa to'liq islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi ikkita bank tashkil etish rejalashtirilgan. Umuman, sohadagi yangiliklar orqali 2026 – 2030-yillarda qo'shimcha 1 milliard dollar miqdorida investitsiya va depozitlarni jalb qilish imkoniyati yaratilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mazkur uch yo'nalish mamlakatimizda zamonaviy moliyaviy va texnologik ekotizimni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlab, ularni amaliyotga tatbiq etish ishlarini jadallashtirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

TOJIKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 26-27-mart kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar hamda O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Bo'lajak tadbirlar kun tartibidan O'zbekiston – Tojikiston do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari o'rin olgan.

Siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va hududlararo hamkorlikni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi hamda transport sohasida o'zaro bog'liqlikni

rivojlantirish, suv va energetika xavfsizligini ta'minlash hamda keng ko'lamli madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashadilar.

Shuningdek, bir qator yangi qo'shma loyihalarni ishga tushirish ko'zda tutilgan, ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to'plami imzolinishi rejalashtirilgan.

O'ZA.

O'zbekiston va Tojikiston:

MUSHTARAK MAQSADLAR SARI DADIL QADAMLAR

Majoziy ma'noda aytganda, o'zbek va tojik xalqlari — bir daraxtning ikki shoxi. Biz umumiy taqdir birlashtirgan xalqlarmiz. Ajdodlarimizning ezgu an'analari davom ettirib, do'stligimizni mustahkamlash hamda himoya qilish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Do'stlik rishtalari

"Ikki tilda so'zlashuvchi bir xalq" sifatida tavsiflangan o'zbek va tojik xalqlarini umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, ko'p asrlik o'zaro hurmat an'analari birlashtiradi. Bu yaqinlik O'zbekiston hamda Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarda mustahkam asos vazifasini bajarmoqda.

2016-yildan boshlab ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqdi. Davlatimiz rahbarining qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan oqilon siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash, o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish, energetik

resurslardan samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, Tojikiston bilan o'zaro aloqalar chinakam strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi.

O'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik

Bugungi kunda davlatlararo muloqot xarakteri Prezidentlar o'rtasida qaror topgan o'zaro ishonchga asoslanadi. Bu jihat mamlakatlar yetakchilarining norasmiy munosabatlarida, bir-biriga "mening aziz birodarim" deya muomala qilganida ham namoyon bo'ladi.

➔ 3

NEFT-GAZ SOHASIDA BELGILANGAN VAZIFALAR IJROSI KO'RIB CHIQUILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga neft-gaz tarmog'ida qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirish va yangi zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hisobot berildi.

"O'zbekneftgaz" tizimida tabiiy gaz qazib chiqarish dinamikasi, mavjud pasayish omillari hamda ularni qoplash bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida axborot berildi. Joriy yilning birinchi choragida yangi quduqlarni ishga tushirish, mavjudlarini ta'mirlash va texnologik tadbirlarni amalga oshirish hisobiga qo'shimcha hajmlar ta'minlangani, yil

davomida esa bu boradagi ishlar yanada kengaytirilishi rejalashtirilgani qayd etildi.

Quduqlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Hozirda yangi "2D" va "3D" seysmik tadqiqotlar uchun istiqbolli maydonlar aniqlanmoqda. Burg'ilash va dala ishlari ustidan xalqaro standartlar asosida

nazoratni kuchaytirish maqsadida supervayzing tizimini yo'lga qo'yish, geologik-gidrodinamik modellashtirish va qazib chiqarish dasturlarini yanada puxta shakllantirish bo'yicha choralar belgilangan.

Konlarda gaz qazib olish koeffitsiyentini oshirish, qiyin o'zlashtiriladigan zaxiralarga yangi yondashuvlarni tatbiq etish, 2026-2027-yillarga

mo'ljallangan dasturlarning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda tegishli ishlar olib borilayotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari tarmoqda ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish, geologiya-qidiruv va

burg'ilash ishlarini tizimli tashkil etish, shuningdek, xorijiy hamkorlar bilan amaliy natija beradigan sheriklikni kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

Mutasaddilarga belgilangan rejalar ijrosini qattiq nazoratga olish va har bir yo'nalish bo'yicha aniq natijadorlikni ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berildi.

O'ZA.

Munosabat

KELAJAK QIYOFASI YARATILAYOTGAN MAKON

Yangi Toshkentda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol namoyon etmoqda. Bu yerda tiklanayotgan zamonaviy futbol stadioni, musiqali favvara majmuasi hamda "Buyuk Ipak yo'li" loyihalari nafaqat yirik qurilish obyektlari, balki Yangi O'zbekistonning ertangi qiyofasini belgilaydigan muhim tashabbuslardir.

Avvalo, bu yerda bunyod etilayotgan stadion loyihasi haqida to'xtalsak. Mamlakatimizda sportga, ayniqsa, futbolga e'tibor mutlaqo yangi bosqichga chiqqan: so'nggi yillarda bu borada amalga oshirilgan islohotlar, maydonlar sonining ko'paygani, maktab stadionlarining ta'mirlangani, yoshlar o'rtasidagi turnirlar tizimining yo'lga qo'yilgani bugun o'z samarasini bermoqda. Mamlakatimiz olimpiya terma jamoasining tarixda ilk bor Olimpiadada ishtirok etgani, milliy terma jamoamizning jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgani uzoqni ko'zlab olib borilgan siyosat natijasidir.

➔ 2

FAKT VA RAQAMLAR

O'ZBEK FUTBOLI RIVOJIDA MUHIM LOYIHA

Yangi Toshkentda barpo etilayotgan zamonaviy futbol stadioni FIFA talablariga mos ravishda qurilmoqda.

Qiymati

100

million dollarlik ushbu majmua Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilmaga ega futbol maydonlaridan biri bo'ladi.

Hududda

55 000

tomoshabinga mo'ljallangan Yangi Toshkent stadioni 6 qavatli bo'lib, unda sportchilar, tashrif buyuruvchilar va matbuot xodimlari uchun keng qulayliklar yaratiladi.

3 ma

qo'shimcha mashg'ulot maydoni bo'ladi.

5 500

o'rinli avtoturargoh quriladi.

Stadion yaqinida metro bekati barpo etiladi.

Hisobot

SARMOYAVIY MUHIT YANADA YAXSHILANADI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yildagi faoliyati yuzasidan axboroti eshitildi.

Unda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari a'zolari, vazirliklar va idoralar vakillari, ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Yig'ilishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining hisobot davri davomida investitsiyalarni jalb etish, sanoatni rivojlantirish va tashqi savdoni kengaytirish borasida amalga oshirgan ishlari muhokama qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilda mamlakat iqtisodiyotida 43,1 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, belgilangan reja 103 foizga bajarilgan hamda 2024-yildagiga nisbatan 1,2 barobar o'sish ta'minlangan.

Investitsiyaviy salohiyati yuqori hamkor davlatlar sifatida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, 2026-yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish hajmini 50 mlrd. dollargacha yetkazish va 2,3 mingga yaqin yangi loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgani ma'lum qilindi.

So'zga chiqqanlar qurilish, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari, tog'-kon va kimyo sanoati, raqamli texnologiyalar kabi sohalar yuqori o'sish sur'atlariga erishayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Majlisda davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiy sektor ulushini oshirish, sanoat tarmoqlarini chuqur qayta ishlashni kengaytirish, mahalliy lashtirishni kuchaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda eksportni diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlandi.

Majlisda davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

KELAJAK QIYOFASI YARATILAYOTGAN MAKON

Shu ma'noda, 55 ming tomoshabing ma'ljallangan Yangi Toshkent stadioni ham xalqimizning sport sohasidagi yuksak marralariga xizmat qiladigan tarixiy majmua bo'ladi.

Bugungi zamonaviy shaharlarda jamoat makonlari odamlarning nafaqat hordiq chiqarishi, balki estetik zavq olishi, madaniy tadbirlarda ishtirok etishi uchun ham xizmat qiladi.

loyiha - hududda barpo etiladigan musiqali favvora majmuasidir. Bu loyiha zamirida shaharsozlikka yangicha yondashuv mujassam.

Shunga hamohang ravishda barpo

etilatogtan "Buyuk Ipak yo'li" loyihasi esa Yangi Toshkentning ma'naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan.



Maydoni 32 gektar bo'lgan ushbu majmua nafaqat turarjoy va tijorat obyektlarini, balki madaniyat, ta'lim va tarixiy xotirani o'zida mujassam etgan yirik makon sifatida ko'zda tutilmoqda.

mahallalar tashkil etilishi bu maskanga betakror ruh va mazmun bag'ishlaydi.

Muhimi, bu tashabbuslarning barchasi inson manfaatiga xizmat qiladi. Ular xalqimiz uchun qulay hayotiy muhit yaratish, yosh avlodga keng imkoniyatlar ochish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatidir.

Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

SOG'LOM, FAOL VA KUCHLI JAMIYAT ASOSI

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasiga nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi omil, balki mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Mulohaza

Mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning keskin oshirilib, sport infratuzilmasining kengayishi va ommaviy sport harakatlarining yo'lga qo'yilishi buning yaqqol isbotidir.

ularni tayyorlash va saralab olish tizimi nazarda tutilmagan edi. Shuningdek, sport turlarini e'tirof qilish, sport federatsiyalarini reestrga kiritish tartibi, kelishilgan sport infratuzilmasining kengayishi va ommaviy sport harakatlarining yo'lga qo'yilishi buning yaqqol isbotidir.



Avvalo, ushbu qonunda ommaviy sportni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Endilikda aholini sportga jalb etish tizimli ravishda tashkil qilinib, ommaviy musobaqalar huquqiy jihatdan mustahkamlanishi belgilab qo'yildi.

Qonunning yana bir ustuvor jihati - sport sohasidagi mutaxassislarning huquqiy maqomining belgilangani. Trenerlar, hakamlar va sport agentlarining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatilishi amaliyotdagi ko'plab muammolarni bartaraf etadi.

Mazkur hujjatda ish beruvchilarning xodimlar uchun sport bilan shug'ullanishga sharoit yaratish majburiyati ham belgilandi.

Yangi tahrirdagi mazkur qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilibgina qolmay, balki sohadagi barcha ishtirokchilarning mas'uliyati va vakolatlarini aniq belgilab beradi hamda huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishda muhim omil bo'ladi.

Munajat YO'LCHIYEVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

Seminar

ASRIY AN'ANALARGA UYG'UN YONDASHUV

Poytaxtimizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda islom qadriyatlarining o'rniga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova, davlat organlari vakillari, imom-xatiblar, mahalla yetakchilari hamda Misrdagi Al-Azhar universiteti professorlari ishtirok etdi.

Muloqot davomida islomning asl qadriyatlari - adolat, qadr-qimmat va hurmat tamoyillari asosida jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Seminar doirasida ayollar huquqlarini ta'minlash, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, reproduktiv salomatlik, oilani rejalashtirish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda samarali muloqot va maslahat berish yo'nalishlari bo'yicha dolzarb masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

INSON QADRI ULUG', XALQ MANFAATLARI USTUVOR

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hududlarda bo'lib, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini o'rganish maqsadida saylovchilar bilan muloqot qilmoqda.

Deputatlar - hududlarda

Ko'rsatilayotgan xizmatlardan aholi mamnun

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sayyora Imomova Taxiotsiz tumanidagi 4-maktabda bo'lib, inklyuziv ta'lim faoliyatini o'rgandi, maxsus pedagog bilan muloqot qildi.

Uchrashuvda keyingi yillarda mamlakatimizda inklyuziv o'quvni rivojlantirish, alohida ehtiyojmand bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Deputat inklyuziv sinflar, jumladan, maxsus jihozlar, o'quv qurollari bilan ta'minlanish holati, inklyuziv ta'lim olayotgan o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, o'quv sifatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berdi.

Keyingi manzil - tumandagi oilaviy poliklinika bo'ldi. Xalq vakili aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati bilan yaqindan tanishib, tibbiyot xodimlari bilan muloqot qildi.

Ma'lum bo'lishicha, ushbu tibbiyot muassasasida zamonaviy laboratoriya faoliyati tashkil etilgan. Hudud aholisi uchun barcha zarur tibbiy tahlillarni shu yerning o'zida, tezkor va aniq amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Bu esa kasalliklarni erta bosqichda aniqlashda muhim omil bo'lmoqda. Deputat tibbiyot maskanining texnik imkoniyatlari va dori-darmon ta'minotini ham ko'zdan kechirdi. Shifokorlar bilan suhbatda aholining tibbiy xizmatdan roziligi sohadagi islohotlarning bosh mezonini ekanini ta'kidlandi.

O'rganishlarda qanday masalalar ko'tarildi? Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Dilmurod Ismoilov Namangan

Ta'mirtalab holatdagi sport zali nazoratga olindi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari - Azizbek Akbarov va Ulug'bek Qobulov Andijon viloyatining Shahrixon tumanidagi 39-umumta'lim maktabida o'rganishlari olib bordi.

Uchrashuvda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, jumladan, Qonunchilik palatasi faoliyati, qonun ijodkorligi yo'nalishida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, ta'lim muassasasida yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirildi. Suhbat chog'ida maktab ma'muriyati tomonidan ta'mirtalab holatdagi sport zali rekonstruksiya qilish bo'yicha murojaat ko'tarildi.

Xalq vakillari mazkur masalani o'z nazoratiga olib, tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda bu muammoni hal etish choralari ko'rishini bildirdi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar doimiy ravishda deputat nazoratida bo'lishi aytildi.

Muloqotlar tizimli davom etadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulchehra Jo'rayeva So'x tumanidagi "Rovon" mahalla fuqarolar yig'ini aholi vakillari bilan uchrashib, ularning murojaatlarini tingladi.

Uchrashuv davomida mahalla aholisi tomonidan ko'tarilgan ichimlik suvi bilan bog'liq masala deputat ishtirokida joyiga chiqqan holda o'rganildi. Ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda amaliy choralar ko'rish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Deputat aholi tomonidan ko'tarilayotgan muammolarni aniqlab, ularni mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan birgalikda joyida hal etish choralari ko'rish yuzasidan takliflar berdi.

Xalq deputatlari So'x tumani Kengashida bo'lib o'tgan uchrashuvda korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha qayd qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, joylarda maishiy korruptsiyaga qarshi kurashish

borasidagi amaliy ishlar yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, tuman va shahar miqyosidagi tashkilotlar - ta'lim, kadastr, tibbiyot, bandlik kabi sohalarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan tanishish masalalari ko'rib chiqildi.

Aholi bilan muloqotlar jarayonida sohalaridagi ma'muriy va byurokratik ta'siqlarni bartaraf etish, korruptsiyaga sharoit yaratib beruvchi omillarning oldini olish bo'yicha fuqarolarning takliflarini o'rganish lozimligi aytildi.

Deputat korruptsiyaga sabab bo'luvchi shart-sharoitlarni chuqur tahlildan o'tkazish, ularni bartaraf etishga mahalliy Kengash deputatlarini keng jalb qilish hamda bu borada tizimli muloqotlar tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Ta'lim va amaliyot uyg'unligi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oybek Rahimov Buxoro tumanidagi 2-texnikumda bo'lib, u yerda joriy etilgan suv tejovchi innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni va talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Xususan, axborot-resurs markazi, mavjud to'garaklarda o'quvchilar tomonidan turli buyumlar ishlab chiqarish jarayonlari hamda o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash usullariga alohida e'tibor qaratildi.

Deputat texnikum faoliyatini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va bozor talablariga mos mutaxassislar tayyorlash yuzasidan tavsiyalar berdi.

Shundan so'ng xalq vakili "Buxorosuvta'minoti" AJ Buxoro tumani filiali "Markaziy yuv inshooti" faoliyati bilan tanishdi. Hozirgi vaqtda mazkur inshoot hududdagi 3000 ga yaqin xonadonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlab kelmoqda.

Muloqot chog'ida deputat aholing toza ichimlik suviga ehtiyojini uluksiz qondirish, sohada energiya tejakorlikni keng joriy etish, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish bo'yicha takliflar berdi.

Har bir murojaat e'tibordda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Mavluda Ibragimova Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida bo'lib, fuqarolar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Qabul davomida turli ijtimoiy masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushdi. Jumladan, bandlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kommunal xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlashga oid masalalar atroflicha o'rganildi. Har bir murojaat yuzasidan tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ayrim masalalar shu joyning o'zida hal etilgan bo'lsa, ijrosi vaqt talab qiladiganlari nazoratga olindi.

Xalq vakili, shuningdek, tumandagi 42-umumta'lim maktabidan kelib tushgan murojaat asosida joyiga chiqqan holda o'rganish ishlari olib bordi. Murojaatda ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlar bugungi talablarga to'liq javob bermayotgani, binolarning eskirgani hamda o'quv jarayonini sifatli tashkil etishda qator muammolar mavjudligi aytilgan.

O'rganish davomida maktab binosining texnik holati, sinfxonalarning jihozlanishi, o'quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar atroflicha ko'zdan kechirildi. Pedagog jamoa va ota-onalar bilan muloqot o'tkazilib, ularning takliflari tinglandi.

Deputat muammoni hal etish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy chora-tadbirlar belgilashga kirishdi. Xususan, maktab binosini rekonstruksiya qilish yoki yangidan qurish masalasini tegishli idoralar kun tartibiga kiritish, zarur mablag' manbalarini aniqlash va loyihalash ishlarini boshlash bo'yicha tashabbuslar ilgari surildi.

Mazkur masala nazoratga olinib, uning ijrosi yuzasidan ishlar izchil davom ettiriladigan bo'ldi.

Tumandagi 39-umumta'lim maktabidan tushgan murojaatda maktab hududidagi bo'sh turar joy maydonidan samarali foydalanish, xususan, o'quvchilar uchun kichik stadion barpo etishga amaliy yordam ko'rsatish so'ralgan edi.

Ushbu masala ham joyiga chiqqan holda o'rganilib, atroflicha tahlildan o'tkazildi. Maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va ota-onalar bilan bo'lib o'tgan muloqotlarda bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni

sportga keng jalb qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanini aytilib, ko'tarilgan masala ham nazoratga olindi.

"Mahalla yettilligi" faoliyati bilan tanishuv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Navro'zbek Yusupov Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida bo'lib, "Shomat" mahalla fuqarolar yig'inidagi "mahalla yettilligi" faoliyatini o'rgandi.

Uchrashuvlarda so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, qabul qilingan yangi qonunlarning ahamiyati, Prezidentimiz farmon va qarorlarining mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, aholing takliflari, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash hamda yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Mazkur uchrashuvlar davomida xalq vakili tumandagi "To'raobod" MFYda ham bo'lib, mahallani rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Jumladan, mahallada infratuzilmani yaxshilash, yo'llar va kommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirildi.

"Mahalla yettilligi" bilan muloqot qilinib, ularning fikr-mulohazalari va takliflari eshitildi. Aniqdigan masalalar mutasaddilar bilan birgalikda hal etildi.

Izboskan tumanida joylashgan "Guzar" mahalla fuqarolar yig'inida 7204 nafar aholi istiqomat qiladi. Shundan 3540 nafarini ayollar, 1509 nafarini yoshlar tashkil etadi.

Deputat ushbu mahalladagi uchrashuvi davomida "yettillik" faoliyati bilan tanishib, ular tomonidan olib borilayotgan ishlar, aholi muammolarini hal etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ko'rib chiqdi.

Mahallada aholi farovonligini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston va Tojikiston:

MUSHTARAK MAQSADLAR SARI DADIL QADAMLAR



Mana shu samimiyat so'nggi yillarda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishini ko'rsatib beradi. Barcha tomonlar hamkorlikni mustahkamlashga va siyosiy jihatdan yuqori darajadagi sheriklik shaklini olishiga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishning eng muhim belgisi 2025-yil 31-martda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi bo'ldi.

Ushbu hujjatning amaliyotdagi ahamiyati ikki davlat munosabatlari nafaqat siyosiy ishonch yoki diplomatik yaqinlik doirasida, balki uzoq muddatli xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik hamda mintaqaviy muvofiqlashtirish mantig'iga asoslangan holda qayta belgilashdadir. Boshqacha aytganda, bugungi o'zbek – tojik munosabatlari muammolarni hal qilish mezonidan o'tib, birgalikda umumiy kun tartibini shakllantirish bosqichiga kiradi.

2025-yil noyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda ikki davlat rahbarlari o'zaro munosabatlarni do'stlik, yaxshi qo'shniqlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida yanada kengaytirish masalalarini ham muhokama qilganliklari tasodif emas.

Munosabatlarning burilish nuqtasi

Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlardagi eng sezilarli o'zgarishlardan biri savdo ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rinib turibdi. 2017-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 70 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda u birinchi marta 500 mln. dollarga yetdi. Ushbu raqamlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlardagi burilish nuqtasini aniq aks ettiradi. 2025-yil natijalari bu tendensiya to'xtamaganligini ko'rsatdi, aksincha, u kuchaygan. Savdo hajmi 718,3 mln. dollarga yetdi.

Demak, to'qqiz yilda 10 barobar

o'sish kuzatildi. Bu raqamlar shunchaki statistika emas. Ular ikkita muhim xulosaga ishora qiladi. Birinchidan, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy yaqinlashuv allaqachon barqaror tendensiyaga aylangan. Ikkinchidan, o'sib borayotgan savdo hajmi hali ham katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.

Statistika yana bir muhim jihatni tasdiqlaydi. 2025-yilda O'zbekiston 11,1 foiz ulush bilan Tojikiston eksportining asosiy bozorlaridan biriga aylandi. Bu O'zbekiston Tojikiston uchun nafaqat qo'shni, balki uning tashqi iqtisodiy aloqalarida amaliy ustunga aylanayotganining dalilidir.

Savdo hajmining o'sishiga qaramay, mavjud ko'rsatkich hali mamlakatlarimizning iqtisodiy salohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Mazkur holat nafaqat tovarlar hajmi, balki ularning tarkibi masalasidir. Hozirgi vaqtda xomashyo, oziq-ovqat va neft mahsulotlari, sanoat hamda iste'mol tovarlari ikki tomonlama savdoda muhim o'rin tutadi. Ya'ni savdo o'sdi, ammo yuqori qo'shimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlarining ulushi hali yetarli darajaga yetmadi.

Shu ma'noda, keyingi bosqichning asosiy maqsadi savdo aylanmasini mexanik ravishda oshirish emas, balki uning sifatini yaxshilashdir. Bunday nuqtai nazar 2025-yil iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumida Prezidentimizning Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Kohir Rasulzoda bilan muloqotida ochiq ifodalangan edi. Endi sanoat, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi sohaslarida hamkorlik loyihalari amalga oshirilyapti. Shu bois yangi iqtisodiy sheriklik kun tartibini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda O'zbekiston – Tojikiston munosabatlari sanoat hamkorligiga qiziqishning oshishi tasodif emas. Avvallari ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, asosan, tranzit, chegara masalalari va savdoni liberallashtirishga

qaratilgan bo'lsa, endilikda qo'shma ishlab chiqarish, investitsiyalar va tarmoqlar orasidagi aloqalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2024-yil aprel oyida Dushanbada bo'lib o'tgan Tojikiston – O'zbekiston investitsiya biznes forumi ushbu jarayonning boshlanish nuqtasi bo'ldi, deyish mumkin. Forumda 600 dan ortiq biznes va hukumat vakillari ishtirok etib, hamkorlikning strategik darajasini ta'kidladilar. Shu yili Zarafshan daryosida ikkita gidroelektrostansiya qurish bo'yicha qo'shma loyiha boshlandi. Bu loyiha energiya investitsiyalaridan tashqari, suv va energetika masalalariga yondashuvning o'zgariganini anglatadi. Ilgari raqobat manbai bo'lgan resurs endi qo'shma kapital va umumiy manfaatlar uchun markazga aylanoqda.

Tojikiston Prezidentining 2025-yil mart

“Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlardagi eng sezilarli o'zgarishlardan biri savdo ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rinib turibdi. 2017-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 70 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda u birinchi marta 500 mln. dollarga yetdi. Ushbu raqamlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlardagi burilish nuqtasini aniq aks ettiradi. 2025-yil natijalari bu tendensiya to'xtamaganligini ko'rsatdi, aksincha, u kuchaygan. Savdo hajmi 718,3 mln. dollarga yetdi.”

oyidagi rasmiy bayonotida O'zbekiston – Tojikiston savdo-iqtisodiy hamkorligini mustahkamlash natijasida “So'g'dmetall” metallurgiya korxonasining tashkil etilgan ma'lum qilindi. Bu misollar shuni anglatadiki, hamkorlik oddiy o'zaro oldi-sotidan qo'shma ishlab chiqarishga o'tmoqda. Tahlil nuqtai nazaridan, bu eng muhim o'zgarishdir. Chunki qo'shma korxonalar va umumiy infratuzilma paydo bo'lganida munosabatlar siyosiy jarayonlarga kamroq bog'liq bo'lib qoladi, iqtisodiy manfaatlar esa ularni uzoq muddatga mustahkamlaydi.

Shu tariqa O'zbekiston hamda Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilayotganini va bu jarayonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsa bo'ladi. Sanoat hamkorligini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash mumkin.

Chegaralar muammo emas, resurs

Darvoqe, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq tushunish uchun transport va chegara masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. So'nggi yillarda ushbu munosabatlar kontekstida eng

muhim o'zgarish, chegaralarni muammo sifatida emas, balki resurs o'rnida qabul qilishga qaratilgan paradigma o'zgarishining paydo bo'lishidir.

2025-yil 31-mart kuni Xo'jandda Tojikiston, O'zbekiston hamda Qirg'iziston Prezidentlari uch mamlakat davlat chegaralarining tutashgan joyi to'g'risida tarixiy shartnoma imzoladi. Ushbu uchrashuvda qo'shma deklaratsiya qabul qilindi va Do'stlik stelasini ochildi. O'zbekistonning Qirg'iziston hamda Tojikiston bilan savdo aylanmasi so'nggi yillarda o'n baravar ortgan va bu hajmning deyarli yarmi chegara hududlarida amalga oshirilgan ta'kidlandi.

Shuning uchun bo'xona postlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini yaratish taklif etildi. Bundan tashqari, avtobuslar sonini ko'paytirish va chegara hududlaridagi

shaharlar o'rtasida yangi yo'nalishlarni ochish to'g'risida kelishuv e'lon qilindi. Bu jarayon muhim ahamiyatga ega, chunki O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarning keyingi “o'sish nuqtasi” aynan chegara hududlarida joylashgan. Faol diplomatiya strategik fon yaratada, savdo, kichik biznes, xizmatlar, turizm va ishchi kuchi harakatining haqiqiy dragverlari chegara hududlaridir. Agar logistika arzonlashsa va sayohat osonlashsa, ikki tomonlama iqtisodiy integratsiyada sifat jihatdan o'zgarish yuz beradi.

Gumanitar aloqalarni chuqurlashtirish yo'lida

Ikki tomonlama munosabatlarning mustahkamligi nafaqat Prezidentlar uchrashuvlari yoki rasmiy muloqotlar, balki oddiy aholi darajasidagi aloqalarning barqarorligi bilan ham o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek – tojik munosabatlarning madaniy-gumanitar jihatida siyosiy ishonchni jamiyat darajasiga o'tkazadigan asosiy mexanizmlardan biridir.

2025-yil mart oyida Xo'jandda bo'lib o'tgan tadbirlar davomida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev har yili Navro'z bayrami kunlari chegara hududlarida qo'shma konsertlar hamda do'stlik



festivallarini o'tkazishni taklif qildi. O'sha kuni davlat rahbarlari ishtirok etgan qo'shma konsertda chegaralar endi birodarlik chizig'i, yangi imkoniyatlar va integratsiya uchun makon ekanini ta'kidlandi.

Ushbu tendensiya turizm yo'nalishida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Xususan, 2025-yil aprel oyida Xo'jandda bo'lib o'tgan mintaqaviy turizm forumida “Farg'ona vodiysining oltin sayyohlik halqasi” va “Navro'z – Markaziy Osiyoning yuragida” kabi qo'shma yo'nalishlar muhokama qilindi. Garchi bu yo'nalishlar O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonni bog'lasa-da, amalda ular o'zbek – tojik gumanitar hamkorligini chuqurlashtiradi. Ular tarixiy merosni birgalikda targ'ib qilish, kichik biznesni jalb etish va chegara hududlarini iqtisodiy jihatdan jonli zonalarga aylantirish imkoniyatini beradi. Shu ma'noda, bugungi kunda madaniy va gumanitar aloqalar nafaqat ramziy, balki amaliy maqsadga ham xizmat qiladi. Ular ishonchni institutsional bosqichdan ijtimoiy darajaga o'tkazadi.

O'zbekiston – Tojikiston o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikda ijobiy tendensiya kuchaymoqda. Bu haqda so'z ketganda, quyidagi raqamlarga e'tibor qaratish kerak: O'zbekistonda tojik millatiga mansub 1,5 million fuqaro istiqomat qiladi. O'ndan ortiq madaniyat markazlarini birlashtirgan Respublika tojik milliy madaniy markazi faoliyat yuritadi. Samarqand, Termiz, Farg'ona davlat universitetlarida tojik tilida mashg'ulotlar olib boriladi. 245 ta maktabda o'qitish tojik tilida yuritiladi, ushbu tilda 4 ta davriy nashr, o'ndan ziyod tele va radiodasturlar tayyorlanmoqda.

2018-yili Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning Dushanbedagi “Yoshlikning 50 yilligi” istirohat bog'ini “Nizomiddin Alisher Navoiy” deb qayta nomlash to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi. Samarqand shahrida ikki xalqning buyuk vakillari – Alisher Navoiy va Abdurrahmon Jomiyga yodgorlik o'rnatilgan. Bugungi

Yuqoridagi tilga olingan yo'nalishlardagi izchil sheriklik pirovardida ikki tomonlama hamkorligimizni yanada boyitib borishda muhim rol o'ynamoqda. Ikki mamlakatda milliy diasporalarning mavjudligi xalq diplomatiyasini rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa, shubhasiz, O'zbekiston va Tojikiston davlatlarining yanada yaqinlashuviga katta hissa qo'shadi.

Sadritdin TUREBONOV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori,
akademik.

MUAMMOLARGA YECHIM SIFATIDA QABUL QILINGAN QONUN

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – “O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi va qizg'in muhokamalardan so'ng qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Deputat sharhi

Aytish kerak, mazkur qonun bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, axborot makonida o'zaro-xalq me'yorlariga rioya etilishini kuchaytirish, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, yangi turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika mexanizmlarini samarali ishlatish hamda huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar jamiyatdagi muhim masalalarga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Bu haqda atroflicha toxtaladigan bo'lsak, ta'kidlash joiz, bugun hayotimizni internetdagi tasavvur eta olmaymiz va undan turli maqsadlarda foydalanamiz. Biroq keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda haqorat, uyatli so'zlar bilan so'kinish, kimnidir kamsitish yoki shilqimlik qilish holatlari ko'paymoqda, sira kamaygan yuqori. Ko'pchilik bunga “shunchaki gap-so'zlar” sifatida qarashadi. Aslida esa, bu jamiyatda hurmatsizlik muhitini yaratadi, insonlar o'rtasida adovatni kuchaytiradi. Yangi qonun aynan shu muammoga yechim



sifatida qabul qilindi. Endilikda internetdagi har qanday haqorat yoki bezorilik ham huquqiy bahoga ega bo'ladi. Bu, avvalo, fuqarolarning qadr-qimmatini himoyalashga, shuningdek, bu norma yoshlar o'rtasida internet madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Har birimiz bir haqiqatni tushunishimiz kerak, ya'ni ekran ortidan aytilgan so'z ham javobgarlikni talab etadi.

Hozirgi global axborot maydonida turli videolar va materiallar orqali chet davlatlardagi urushlar ayrim hollarda “qahramonlik” sifatida ko'rsatilmoqda. Bu esa, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Chunki bunday targ'ibot ularni xavfli va noqonuniy qarorlar qabul qilishga undaydi. Qonun ana shu xavfli bartaraf etishga qaratilgan. Endilikda chet davlat hududidagi qurolli to'qnashuvlarda qatnashish targ'iboti singdirilgan materiallarni tayyorlash, tarqatish yoki reklama qilish mumkin emas. Bu norma milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Asosiy, u fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni,

turli yot g'oyalari va xavfli chaqiriqlardan himoya qiladi. Zero, tinchlik va barqarorlikni asrash – barchamizning vazifamiz.

Yana bir muhim jihat, huquqbuzarlikni videoaga olib tarqatish qonun bilan taqiqlanadi. Kuzatadigan bo'lsak, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda “ko'proq layk va ko'rishlar” uchun turli noqonuniy xatti-harakatlarni tayyab videoaga olish holatlari ko'rinib turibdi. Ayrimlar janjal chiqaradi, haqorat qiladi yoki qonunni buzib, shuni internetga joylaydi. Bu esa boshqalarga yomon ta'sir ko'rsatadi. Qonun bunday holatlarga qat'iy chek qo'yadi. Endilikda shaxs nafaqat huquqbuzarlik sodir etgan uchun, balki uni videoaga olib tarqatgani uchun ham javobgarlikka tortiladi. Bu juda muhim qadam. Chunki qonunbuzarlikni “kontent”ga aylantirish jamiyatda huquqiy ongini pasaytiradi. Shuning uchun har bir fuqaro yaxshi anglab yetishi zarurki, mashhurlik o'ttirish uchun qonunni buzish – bu yo'l emas, aksincha, javobgarlikka olib keladi.

Albatta, ushbu o'zgartirishlar jamiyatda tartib, hurmat va mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: mazkur qonundagi normalar so'z erkinligini cheklaydimi? Avvalo, bir narsani aniq tushunib olish kerak. So'z erkinligi – bu cheklanmagan va javobgarliksiz gapirish huquqi emas. Har qanday demokratik jamiyatda so'z erkinligi boshqa insonlarning huquq va qadr-qimmatini bilan chegaralanadi.

Tanqid bor – haqorat yo'q. Bu shuni anglatadiki, qonun hech qachon tanqidni taqiqlamaydi. Fuqaro davlat organlari, mansabdorlar yoki jamiyatdagi muammolar haqida erkin fikr bildirishi mumkin. Ammo haqorat, so'kinish va kamsitish – bu fikr emas, bu huquqbuzarlik. Yangi norma aynan shu chiziqni aniq belgilab bermoqda.

Axborot erkinligi bor – xavfli targ'ibotga yo'l yo'q. Ya'ni har kim axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Lekin urush, zo'ravonlik yoki noqonuniy harakatlarni targ'ib qilish erkinlik doirasiga kirmaydi. Chet davlatlardagi qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etishni targ'ib qilish – bu nafaqat shaxs, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid.

Kontent erkinligi bor – qonunbuzarlikni “reklama” qilish mumkin emas. Ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratish erkin. Ammo qonunbuzarlikni videoaga olib, uni ommalashtirish erkinlik emas, balki javobgarlikka sabab bo'ladigan harakatdir. Chunki bunday kontent boshqalarni ham shu yo'lga undashi mumkin.

Shunday ekan, mazkur qonun so'z erkinligini cheklamaydi, aksincha, uni himoya qiladi. Agar jamiyatda haqorat, zo'ravonlik va tartibsizlikka chek qo'yilmasa, erkinlik emas, balki betartiblik yuzaga keladi. Qonun fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoyalash barobarida yangi turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Saydullo AZIMOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

BIR BAYROQ OSTIDA BIRLASHGAN EL

G'urur

hech qachon kam bo'lmaydi

“Parij olimpiadasida o'zbekning mard qizi Diyora dunyoni lol qoldirdi. Uning sharafiga ko'tarilgan O'zbekiston bayrog'ini ko'rib ko'zimdan yosh chiqib ketdi... Har gal bayrog'imiz yuksak arenalarda muzaffar hilpiraganda bu g'alabalarda bizning ham hissamiz bordek, quvonchimizni yashira olmaymiz”.



Bu – O'zbekiston va boshqa davlatlar bayroqlarini yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan Toshkent shahridagi “Alo, o'z, o'z” mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari Mahfura Qodirovaning dil so'zlari.

– Bayroq milliy o'zlikni anglashning eng yuksak ifodasi, – deydi tadbirkor. – Diyora Keldiyorova, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov kabi sportchilarimiz yoki terma jamoamiz futbolchilari g'alabaga erishar ekan, quvonchini bayrog'imizni osmonga ko'tarib nishonlaydi. Chunki bayroq – sha'n, gurur va iftixorimiz ramzi. U elni, yurtini, turli millatlarni birlashtiradi. Bu birlik Vatandir. Bir bayroq ostida birlashgan el hech qachon kam bo'lmaydi.

Bilasizmi, bayroq tikayotgan ishchilarimiz yuz-ko'zida Vatanga daxldorlik tuyg'usini ko'ramiz. Vatanni sevmay, uning ramzlari

Korxonada nafaqat yurtimiz, balki xorijiy davlatlar bayroqlarini tikish borasida ham katta tajriba to'plangan. Ayni paytda bu yerda buyurtma asosida jahonning 140 ta davlati va qator xalqaro tashkilotlarning bayroqlari ishlab chiqarilayotir.

– Korxonamiz chevarlari BAA, Saudiya Arabistoni, Amerika Qo'shma Shtatlari, Vengriya, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi va boshqa qator davlatlar bayroqlarini ishlab chiqarish borasida maxsus o'quv kurslarida tahsil olgan, – deydi Mahfura Qodirova. – Asosiy, faoliyatimizda zamonaviy va eng so'nggi texnologiyalardan foydalanamiz. Shu bois mahsulotlarimiz jahon standartlariga to'la javob beradi.

Bugun O'zbekiston bayrog'i kirib bormagan mamlakat qolmagan. Hatto hamyurtimiz Said To'laganov 2017-yilda Yevropadagi eng baland tog' cho'qqisi – Elbrusga (5542 metr) mamlakatimiz bayrog'ini qadagan bo'lsa, o'zbekistonlik alpinist Sergey Denisenko 2021-yil 1-iyunda sayyoramizning eng baland nuqtasi – Everest (8848 metr) cho'qqisiga Vatanimiz bayrog'ini o'rnatdi, bu biz uchun yuksak sharafdir. Binobarin, O'zbekiston bayroqlari Yer shari bo'ylab hilpirab, Vatanimizning mustaqil va ozod ekanini olam aro namoyon etmoqda.

Mahfura Qodirovaning milliy g'ururimiz va davlatimizning buyuk ramzi bo'lgan bayroq ishlab chiqarishdagi mehnati yuksak e'tirof etilib, davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Bugun uning ko'ksini “Mehnat shuhrati” ordeni va “Shuhrat medali” bezab turibdi.

Faxridin BOZOROV (“Xalq so'zi”)
Akmal MUHAMMADOV
olgan surat.

Yashillikning betakror tarannumi

Yurtimizda ko'klam nafasi ufurib turgan ayni kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan yana bir xayriy ishga qo'l urildi.

Prezidentimizning "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida tashkil etilgan Kasaba uyushmalari bog'ida keng ko'lamdagi ko'chat ekish aksiyasi hamda obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish tadbirlari o'tkazildi.

Biz va tabiat

Aytish joizki, 5,5 gektarli ushbu bog'da 46 250 tup daraxt va gul ko'chatlari ekilgan bo'lib, ularning har biri tegishli tartibda parvarishlab kelinyapti. O'tgan qisqacha vaqt ichida bog' hududiga yangi nihollarni o'tqazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida zarang, shumtol, sakura, kashtan daraxtlari, shu bilan birga, butasimon o'simliklar ham gurkurab rivojlanayotir. Shu tariqa qisqacha vaqt ichida keng maydonda inson ko'zini yashnatib, dillarga orom beruvchi yaxlit go'zal manzara hosil qilinib, yashillikning betakror simfoniyasi yaratildi. Bog' zamonaviy devorlar bilan o'ralib, uning atroflari obodonlashtirildi.

Ayni ko'chat o'tqazish pallasi bo'lgan shu kunlarda bog'ni kengaytirish maqsadida qo'shimcha ravishda 4,7 gektar yangi yer maydoni olinib, Kasaba uyushmalari bog'i maydoni 10,2 gektarga yetkazildi.

Avvalo, puxta tayyorlangan loyihaga ko'ra, tegishli agrotexnik talablar asosida yerga ishlov berildi. Toshloq yerlar tekislanib, shudgorlash ishlari amalga oshirildi, o'g'itlash ham e'tibor markazida bo'ldi.

Bayram arafasida uyushtirilgan tadbirda mazkur bog' uchun ajratilgan yangi yer maydoniga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, uning tasarrufidagi tashkilotlar hamda tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashlari mutasaddirlari va xodimlari, kasaba uyushma faollari, shuningdek, Nurafshon shahri nuroniylari ishtirokida 21 mingdan ortiq mevali, manzarali nihollar hamda gul ko'chatlari o'tqazildi.

– "Yashil makon" umummilliy loyihasi yanada keng quloq yoyib, yurtimiz bo'yab bog'u bo'stonlar ko'payishiga xizmat qilmoqda, – deydi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari



Muhabbat O'rmonbekova. – Birgina Kasaba uyushmalari bog'ida tashkil etilgan tadbirda ham atrof-muhit musafoligiga hissa qo'shuvchi yashillik olami bir necha ming tup daraxtlar hisobiga yanada kengaydi. Hademay, ushbu bog' nafaqat Nurafshon shahri, balki butun yurtimiz ko'rkiga ko'rk bag'ishlovchi maskanga aylanishiga shak-shubha yo'q.

Ta'kidlash o'rinni, ko'chat ekib, bog' yaratish shunchaki mavsumiy yumush emas, balki insonning hayotiga haqiqiy baraka kiritadigan ezgu amaldir. So'zimizning isboti

qo'shilgan yer maydonida ekilgan nihollarning kelgusida gurkurab yashnashi uchun O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan daraxt va gul ko'chatlarini tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilmoqda. Maqsad – barcha nihol o'z vaqtida suv bilan ta'minlash. Boqqa o'tqazilgan ko'chatlarning sug'orish tizimlari, vegetatsiya hamda ko'karish jarayonlari nazorati esa malakali agronom va mutaxassislar nazoratida.

Yana bir jihat. Bog'ning yangi

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

O'zbekistonda ilk AES maydonchasida dastlabki beton ishlari boshlandi

"O'zatom" va "Rosatom" uzoq muddatli hamkorlik va loyihani rivojlantirish bo'yicha asosiy hujjatlarni imzoladi.

Qurilish "RITM-200N" reaktoriga ega kichik quvvatli energoblok reaktori uchun asos tayyorlashdan boshlandi.



Mazkur loyiha kombinatsiyalashgan turdagi zamonaviy atom elektr stansiyasini yaratishni nazarda tutadi: – "VVER-1000" reaktorlariga ega ikkita energoblok; – "RITM-200N" reaktorlariga ega ikkita energoblok. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu stansiya ishga tushirilgandan so'ng mamlakatimizning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining 15 foizdan ziyodini ta'minlaydi.

Toshkentdan Nurafshongacha "BRT" – ekspress avtobus yo'lagi quriladi

Poytaxtimizdagi Qo'yliq bozoridan Toshkent viloyatining Nurafshon shahri markazigacha 23 kilometrlik yangi yo'l infratuzilmasi quriladi. Bu borada xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining tegishli loyiha konsepsiyasi ma'qullandi.

Infratuzilma an'anaviy avtomobil yo'li, "BRT" (tezkor avtobus yo'lagi), piyodalar yo'laklari, 9 ta bekat, yo'l o'tkazgichlar, yer osti yo'llari va ko'priklarni qamrab oladi. Qariyb 120 mln. dollarlik loyihani xalqaro moliyaviy tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshirish ko'zda tutilgan. Qurilish ishlari 2028-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.



Loyihaga ko'ra, yo'l olti tasmali qilib quriladi, avtobuslar yo'lagi yo'l o'rtasida joylashadi, bekatlarga kirib-chiqish xavfsiz tashkil etiladi.

"Toza havo" milliy loyihasi ishlab chiqildi

O'zbekistonda havo ifloslanishini kamaytirish bo'yicha "Toza havo" milliy loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur loyiha 2030-yilgacha atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmini qisqartirish, sanoat korxonalarida filtr va avtomatik monitoring tizimlarini joriy qilish, shuningdek, transportdan chiqadigan chiqindilarni kamaytirishni nazarda tutadi.


Tahlillarga ko'ra, Toshkent, Navoiy, Farg'ona, Chirchiq va Termiz shaharlarida havo ifloslanishi me'yordan yuqori ekani qayd etilgan. Shu bois sanoat obyektlarida majburiy monitoring postlari o'rnatilib, ma'lumotlar yagona geoaxborot tizimiga ulanadi.

Shuningdek, qurilish sohasida ham ekologik talablar kuchaytirilishi, shaharlarda "yashil yo'laklar"ni saqlash va ekologik ekspertiza talablarini majburiy tartibda yo'lga qo'yish taklif etilmoqda.

"AvtoRaqam" ilovasining afzalligi nimada?

Davlat raqam belgilarini tanlash va sotib olish uchun yangi "AvtoRaqam" ilovasi ishga tushirildi.

IIV Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatidan ma'lum qilishlaricha, chiroyli kombinatsiyaga ega davlat raqam belgilarini faqatgina "Avto Raqam" ilovasi orqali, o'z vaqtida raqam belgilarini esa "Random" tasodifiy tanlash yo'li bilan xarid qilish mumkin.



Har ikkala holatda ham inson omili cheklangan bo'lib, davlat raqam belgilarini elektron dasturlar orqali beriladi.

"Xalq so'zi".

"Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini jamoasi tahririyatining sobiq xodimi Alisher Otaboyevga otasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, tanliq adabiyotshunos va tarjimon Ahmad OTABOYEVning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

Omilkorlik Xonadonda noyob gullar parvarishi

Quvasoy shahri "Valik" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Shahboz Erkinov mo'jazgina issiqxonasida chet eldan olib kelingan 100 turdan ortiq anvoiy gullarni parvarishlab, yaxshigina daromad olmoqda.



Yosh tadbirkor bir necha yil mehnat muhojiri sifatida xorijda ishladi. Yurtimizda yaratilgan sharoitlardan ruhlanib, oilasi bag'riga qaytdi va biznesini boshladi. Ijtimoiy tarmoqda o'z sahifasini ochib, gulchilikda jahon tajribasi va ilg'or usullarni ham o'rganib bormoqda.

– Issiqxonadagi alohida laboratoriyada ushbu gullarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tajribalar olib boraman, – deydi Shahboz. – Bundan ko'zlangan maqsad – bir va ko'p yillik gul navlari yetishtirishni ko'paytirish.

Aytish joizki, zamonaviy intensiv issiqxonada yil davomida yetishtirilayotgan, jahon bozorida xaridor gullar buyurtma asosida mamlakatimiz bo'yab xaridorlarga yetkazib berilmoqda.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

BO'LAJAK CHEMAPIONLAR MAKTABI

Bo'stonliq tumanidagi Soyliq mahallasida Olimpiada chempioni, uch karra jahon chempioni Akbar Jo'rayev nomi bilan ataluvchi og'ir atletika sport maktabi ochildi.

Imkoniyat

Ushbu majmua O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 25 mlrd. so'm mablag' evaziga bunyod etildi. Zamonaviy loyiha asosida qurilgan sport maktabi hududida yotoqxona va oshxona, ministadon, sauna, og'ir atletika zali, o'quv xonalari, yopiq turdagi basseyn, shuningdek, murabbiylar uchun alohida xizmat xonalari mavjud.

– Akbar Jo'rayev nomidagi sport maktabining ochilishi ramziy ma'hoga ega. Chunki u o'zining matonati, kuch-g'ayrati va erishgan yuksak natijalari bilan nafaqat O'zbekiston, balki jahon sporti tarixida munosib o'rinni egallagan



sportchi hisoblanadi. Bu yoshlar uchun katta motivatsiya maktabi, haqiqiy chempionlar yetishib chiqadigan tayyorlash hamda yurtimiz sha'ni xalqaro maydonlarda munosib himoya



maskan bo'lishi, shubhasiz, – deydi Toshkent viloyati Sport boshqarmasi mas'ul xodimi Dilrabo Jumanova. Mazkur muassasa yoshlarni sportga keng jalb etish, iqtidorli sportchilarni saralab olish, ularni professional darajada tayyorlash hamda yurtimiz sha'ni xalqaro maydonlarda munosib himoya

qiladigan chempionlarni tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi. Bunday zamonaviy sport inshootlari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ham xizmat qilishi bilan katta ahamiyatga ega.

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

NOMOFOBIYA – TELEFONGA QARAMLIK

Telefonga qaramlik – XXI asr epidemiyasi, deya tan olinmoqda. Tibbiyotda bu "nomofobiya kasalligi" deb tashxislanadi. Ya'ni nomofobiya telefonga qaramlik, undan ayrilib qolishdan qo'rquv hissi paydo bo'lishi bilan kechadi va bu hozirda ko'proq bolalar va o'smirlarda uchramoqda.

Taassuf

...Avtobusda ketayotib, chamasi besh-olti yoshli bolaning onasiga xarxashasi e'tiborimizni tortdi. Nuqul ayasining sumkasiga qo'l cho'zar, ayol esa uni ovutish ilinjida xijolat. Nihoyat, bola niyatiga yetdi chog'i, sumkadan olingan uyali telefon qo'lga tegar-temgas tinchidi-qoldi. Va... shahardan tuman markazigacha bo'lgan bir soatlik yo'l davomida undan ko'zini uzmasdi.

– Bugungi bolalarning tili "sotka" deb ataladigan shu mato bilan chiqaypti, – dedi bu holatni kuzatib turgan hamrohimiz, g'ijduvonlik pedagog Shuhratjon G'aniyev. – Vaholanki, ertaga maktab yoshiga yetgach, bunday bolaning o'y-xoyali kitobda emas, telefonda bo'lishi aniq. Kitob mutolaasi hali miyasi mo'rt bolani fikrlashga o'rgatadi, oq-qorani tanitadi. Bilimga bilim qo'shadi. Qo'l telefoni-chi? U bor joyda bolaning diqqati chalg'iydi: darslarni o'zlashtirishiga xalaqit beradi. Ijtimoiy tarmoqlarga ipsiz bog'lanib qolgan, miyasini kerak-nokerak axborotlar bilan to'ldirayotgan bolaning ma'naviyati qanday bo'ladi? Uning inson ruhiy salomatligiga jiddiy ta'siri haqida-ku gapirmasak ham ko'pchilik biladi.

Muallimning xavotirida jon bor. Afsuski, ayrimlar "Qulog'im tinch bo'lsin", "Xarxasha qilmasin", "Asabimga tegmasin" degan vajlar bilan hali endigina tili chiqqan bolasiga ham qo'l telefonini berib qo'yarmoqda. Oqibatda jajji o'g'il-qizlar qo'lida "sotka"

bo'lmasa, bir narsasini yo'qotib qo'ygani kabi o'zini qo'yarga joy topolmaydigan holatga tushmoqda. Tajang va serxarxasha, "qilma-qo'yma"ni bilmaydigan bo'lib o'syapti.

U va boshqa elektron ekranlarning bola sog'ligiga, deydik, miya rivojiga, ruhiy salomatligiga jiddiy ziyon yetkazishi ham bor gap.

– So'nggi yillarda yosh bolalar orasida telefon, planshet va boshqa elektron qujilmalardan huda-behuda foydalanish holatlari keskin ortib bormoqda, – deydi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filiali oftalmologi Sherzod Cho'liyev. – Bu holat ko'zga salbiy ta'sir ko'rsatib, qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lyapti. Astenopiya, ya'ni ko'z charchashi, ko'rish qobiliyatining pasayishi, miopiya, ya'ni quruq ko'z sindromi, bosh og'rig'i, diqqatning susayishi shular jumlasidan. Ekraga uzoq muddat tikilib turish bola ko'zida ko'rish nuqsonini yuzaga keltiradi.

Xo'sh, bunday holatda ota-onalar qanday yo'l tutmog'i kerak? Qanday qilib farzandlarini telefonga qaramlikdan qutqarishlari mumkin?

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

27 – 29-mart kunlari Buxoroda uloq-ko'pkari bo'yicha xalqaro turnir o'tkaziladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulallig qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhili S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.30 Topshirildi – 23.50 1 2 3 4 5 6